

**“BOBURNOMA” DA EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI
BORASIDAGI MA'LUMOTLAR**

Abdurasulova Mehribon Ekinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi borasidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, hududlarning o'ziga xos xususiyatlari ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Boburnoma”, o'simlik dunyosi, hayvonot olami, qushlari, yeri, obi-hayoti.

Barchamizga ma'lumki, Zahriddin Muhammad Bobur davlatshunoslik, fiqhshunoslik, tarix, tilshunoslik, san'atshunoslik, etnografiya sohalari bo'yicha mutafakkir olim bo'lishi bilan bir qatorda ekologiya, hayvonot va nabobat olamining ham bilimdoni hisoblanadi. Uning “Boburnoma” asarida ekologiya masalasiga, tabiiy muhitni muhofaza qilish, o'zi kezzagan joylar, o'z saltanatini o'rnatgan, hukmronlik qilgan hududlarning o'simlik va hayvonot dunyosi, yeri, suvi, atmosfera, havosiga taalluqli ko'plab asosli va qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Davlatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek, “Boburning ekologiya haqida yozganlarini o'qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o'ylaysiz”. Darhaqiqat, “Boburnoma”ni o'qiganda unda bayon qilingan joylarning ekologik holati, ya'ni o'sha diyorning o'simlik dunyosi, hayvonot olami, qushlari, yeri, obi-hayoti, iqlimi, giyohlari, meva-chevasi xususida tarixiy va ekologik nuqtai-nazardan bugungi kun uchun ham ahamiyati qimmatli bo'lgan aniq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. “Boburnoma”ni nabobat olamiga oid sermazmun asar deyish o'rinlidir. Unda Farg'onadan Hindistongacha bo'lgan yer, joylar, tog', o'lkalarda o'sadigan daraxt, o'simlik, o't-o'lan, gullar, ularning turlari, oziq-ovqat va tibbiy xususiyatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Chunonchi, “Boburnoma”da Hindiston mevalaridan anba haqida mukammal ma'lumot bayon qilinadi. Unda yozilishicha, “Hindistongagina xos mevalardan biri anbadir. Yaxshisi yaxshi bo'ladi, ko'p yeyish mumkin. Lekin yaxshisi kam bo'ladi. Uni aksar xom uzadilar: uyda turib pishadi. Xomi yaxshi osh qatig'i bo'ladi. G'o'rasining murabbsi ham yaxshi bo'ladi”.

Shuningdek, “Boburnoma”da Hindiston mevalaridan keylaning o'ziga xos jihatlari haqida batafsil tavsif aytiladi: “Yana bir mevasi keyladir. Daraxti unchalik baland emas, balki daraxt deb ham bo'lmas. Buta bilan daraxt orasidagi bir narsadir. G'unchasining har bargi ochilgach, bargining tubida qator asti-yetti guli bo'ladi. Bu qator gullar keyla bo'ladi”.

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Bundan tashqari, “Boburnoma”da balut daraxtining xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Unda bayon qilinishicha, “balut Janubiy Osiyoda o'sadigan eman daraxti navi”. U Afg'oniston tog'larida, Qobuldan sharqdagi hududlarda o'sishi, yog'ochi yaxshi o'tin bo'lishi ta'riflanadi. Xoja Seyoron qishlog'i yaqinidagi o'rmonlar balutiston deyilgan va qishloq nomi chinor, arg'uvon va balut daraxtlarining birga o'sishidan kelib chiqqani aytilgan.

“Boburnoma”da o'simlik dunyosining turlari, mevalarining ko'rinishi, ta'mi haqida to'liq, ishonchli ma'lumotlar berilishi, daraxti, hajmi, rangi, guli va yaprog'igacha tasvirlash, shuningdek ularni Farg'onada o'sadigan daraxtlar, mevalar, gul va barglarigacha qiyosiy taqqoslash o'quvchida katta qiziqish uyg'otib, bu Boburning yetuk mutafakkir va tajribali olimga xos kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Ushbu asarda, ayniqsa Bobur o'zi xukmronlik qilgan ona vatani Farg'ona viloyatining nabobati haqida ham muhim ta'rifu-tavsiflar keltiriladi. Ushbu qomusiy asarda yozilishicha, “Farg'ona don-duni ko'p, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo'ladi. Andijonning noshvatisidan yaxshiroq noshvati bo'lmaydi. Yana Marg'inon noz-nematga boy. Anori va o'rigi juda yaxshi bo'ladi”.

Farg'ona viloyati o'simlik dunyosining rang-baranligi haqida to'xtalar ekan, Bobur tobulg'i daraxtining mo'jizaviyligi, uning sahovati, o'ziga xosligi, ijtimoiy ahamiyati xususida e'tiborli jihatlarni bayon etadi. Xususan, “Boburnoma”da yozilishicha, “tobulg'i daraxti Farg'ona tog'larida bo'ladi. O'zga hech yerda bo'lmaydi. Tobulg'u shunday daraxt: po'sti qizil, hassa, qushlarga qafas qiladilar, qamchi dastasi ham qiladilar, tarashlab kamon o'qi qiladilar”.

“Boburnoma”da bayon qilingan tarixiy voqeliklar, faktlar shundan dalolat beradiki, Bobur nafaqat o'zi umrguzaronlik va xukmronlik qilgan hududlarning o'simlik dunyosi haqida ma'lumotlar keltiradi, balki ushbu yerlarning iqlim sharoitiga qarab ularni shu yerda moslashtirishga va o'stirishga harakat qiladi. Masalan, Boburning buyurtmasi bilan Agradagi “Hasht bixisht” bog'ida Hindiston sharoitida birinchi bor qovun, uzum, olxo'ri hamda Markaziy Osiyodan olib keltirilgan gullar ekib o'stirilgan. Bu tajriba o'simliklarni introduksiyalash va iqlimlashtirishning agronomiya va biologiya tarixidagi dastlabki namunalardan biridir. Tarixiy ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, Bobur Hindistonda shaharlarni obod qilish, quduqlar qazib suv chiqarish, go'zal bog'lar yaratish kabi ishlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Zahiriddin Muhammad Bobur hududlarni ishg'ol qilib ularni adolatli boshqaribgina qolmay, ularni o'ziga xos bo'lgan yashash tarzi va ijtimoiy holati haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2012.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – T.: Fan, 1994.



O‘ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

3. Zahiriddin Muhammad Bobur xazinalari. Mubayyan va nasriy bayoni. – T., 2014.
4. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. – T.: O‘zbekiston, 2011.